
Navbatdagi sayyor qabul Rishton tumanida o'tkazildi

???? Ijtimoiy himoya milliy agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i (v.b) Rishton tumanida bo'lib, sayyor tartibda fuqarolar murojaatlarini o'rgandi.

???? Sayyor qabul avvalida muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan ijtimoiy himoya tizimida olib borilayotgan insonparvar islohotlar va buning samaralari xususida so'z yuritildi. Ta'kidlandiki, aholi murojaatlari bilan ishlash, fuqarolarni qiynab kelayotgan muammolarga yechim topishda sayyor qabullarning ahamiyati katta bo'lib, bu amaliyot kutilganidek ijobiy samara bermoqda.

???? Sayyor qabul davomida fuqarolarning ijtimoiy masalalarga oid 11 ta murojaati tinglandi. Ularning aksari joyida qanoatlantirilgan bo'lsa, yana ayrimlari yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi. 3 nafar murojaatchi reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlandi. Shuningdek, aholi muammolarini o'rganish, ochiq muloqot orqali fuqarolarni eshitish va ularning qalbiga kirib borish, mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish yuzasidan dolzarb vazifalar belgilab olindi.???? Muxtasar aytganda, hech bir murojaat shunchaki qog'ozlarda qolib ketmayapti. Binobarin, o'tkazilayotgan sayyor qabullar muammolarni aniqlash, joyida hal qilish, ularni bartaraf etish maqsadlariga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

2024-11-21 09:53:47